

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING O'QISHGA QIZIQISHINI
OSHIRISH UCHUN INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

Shopulatova Nasiba Umirovna

*Ilmiy rahbar: NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasidotsent v.b., pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Barnoqulova Marjona Bahodirovna

*NIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedresi Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-guruh
talabasi*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsga qiziqtirish, diqqatini jalb qilish, e'tiborini tortish uchun darslarni noodatiy tarzda o'tkazish uchun turli xildagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Interfaol usullar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishga e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Interfaol usullar qo'llangan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni mustaqil tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishlariga qaratiladi. O'qituvchi bu jarayonda shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka sabab bo'ladi. Ta'lim metodlarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni turlituman jadallashtiruvchi metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ko'tarilishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonidagi faolligini muttasil rag'batlantirib turishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llashi va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undashi zarur. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Bunda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi, u butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsga qiziqtirish, ijodkorligini oshirish, hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun darslarda turli xil didaktik o'yinlar va metodlarda foydalanib dars o'tgan samara beradi.

Quyida biz o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun PIRLS xalqaro baholash dasturiga oid testlarni ko'rib chiqamiz:

PIRLS — bu kichik yoshdagi bolalarning o'qish va matnni tushunish qobiliyatini chuqur o'rganuvchi xalqaro tadqiqot. Test bajarilish tartibi oddiy, ammo qat'iy


belgilangan bosqichlarga ega. Natijalar esa mamlakat ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Ushbu ta'limiy metod 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish savodxonligi, ya'ni matnni tushunishi, tahlil qilishi va fikr bildirish qobiliyatini baholaydigan xalqaro tadqiqotdir. O'quvchilarga maxsus test kitobi beriladi, savollar turli ko'rinishda: Shartli javob tanlash (A,B,C,D), javob yozish (ochiq savollar), o'quvchilar matnni o'qiydi, savollarga javob beriladi, test yakunida maxsus so'rovnomaga to'ldiriladi. Shu tarzda davom etadi. Ushbu matn 4-sinf "Ona tili" darsligidan olingan.

G'olib chumoli

O'rmonda fil bilan chumoli uchrashib qolibdi. Fil bunday kichkina jonzo'ni ko'rmagan ekan. Chumoli ham bahaybat hayvonga birinchi bor duch kelishi ekan. Birinchi bo'lib, fil gap boshlabdi:

- Men filning bolasiman. Onam mendan ikki barobar katta. Buncha kichik bo'lmasang? Ko'zga tashlanmaysan ham. Bu turishda qanday kun kechirasan?



Filning gaplari chumoliga og'ir botibdi. Kun bo'yi xomush yurganini ko'rgan onasi chumolidan nima gapligini so'rab

bilibdi. So'ng:

- Sen xafa bo'lma. Yaxshisi, kuch sinashish uchun uni maydonga chaqir, - debdi.

- Shunday katta jonzo' bilan qanday bellashaman?

- Sen menga ishon. Albatta, uni yengasan, - debdi onasi.

Ertasiga chumoli filni kuch sinashishga chaqiribdi...

Savollar:

1-savol: Fil chumoli bilan uchrashganda: Filning birinchi izohi chumoli his-tuyg'ulariga qanday ta'sir qilgan?



A) Chumoliga ilhom bergan va quvontirgan

B) Chumoliga og'ir botib, uni xafa qilgan

- C) Chumoliga qo'rquv uyg'otgan
D) Chumoliga hech qanday ta'sir qilmagan



2-savol: Chumoli onasining "Sen xafa bo'lma. Yaxshisi, kuch sinashish uchun uni maydonga chaqir" degan maslahatining ahamiyati nima?

- A) Chumolini kuchsiz his qilishiga sabab bo'ladi
B) Chumoliga ruhiy tayyorgarlik va strategik jur'at beradi
C) Chumolini qo'rquvga soladi
D) Chumoli bu maslahatdan voz kechadi

3-savol: Fil va chumoli o'rtasidagi farq chumoli harakatlariga qanday ta'sir qilgan?

- A) Chumoli hech narsa qilmaydi, xotirjam bo'ladi
B) Chumoli o'z kichikligini yengib, maydonga chiqadi
C) Chumoli filni tan olmaydi
D) Chumoli qo'rquvdan uyni tark etadi

4-savol: Kichik jonzot katta jonzot bilan bellashishga jur'at qilgani orqali biz qanday hayotiy saboqni olamiz?

- A) Kichik bo'lish doimo zaiflikdir
B) Qo'rquvni yengib, jasorat bilan harakat qilish mumkin
C) Katta jonzot har doim g'alaba qozonadi
D) Kichik jonzot hech qachon muvaffaqiyatga erisha olmaydi

5-savol: Chumoli fil bilan kuch sinashishga qaror qilgani nimani bildiradi?

- A) U qo'rqmaydi
B) U kuchsiz
C) U katta hayvonga ishonadi
D) U maydondan qochadi

Bundan kutilgan natija:

- O'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini aniqlash;
- Matnni chuqurroq tushunish;
- Asosiy fikrni ajrata olish;
- Tahlil qila bilish;
- Matn bo'yicha xulosa chiqarish;

"Rasmga qarab gap tuz" metodi

Ushbu ta'limiy metodda o'qituvchi doskaga yoki ekranga rasm qo'yadi (qush, daraxt, bola o'ynayapti va hokazo). O'quvchilar rasmga qarab 1 ta gap tuzadilar. Keyin boshqa o'quvchi shu gapdan so'z turkumlarini (ot, sifat, fe'l) ajratadi. Qolganlar gapni to'ldirib yoki o'zgartirib ko'proq variant aytadi.

"Rasmga qarab gap tuz" metodi



Gap: "Mushuk kichkina to'p bilan o'ynayapti."

So'z turkumlari : Ot – mushuk, to'p; Sifat- kichkina; Fe'l- o'ynayapti

"Rasmga qarab gap tuz" metodidan kutilgan natija;

- O'quvchilarni gap tuzish qobiliyati oshadi;
- So'z boyligi va talaffuzi rivojlanadi;
- So'z turkumlarini ajrata olish ko'nikmasi shakllanadi;
- Jamoa bilan ishlashni o'rganadi;
- Darsga qiziqish va faollik oshadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshirish uchun interfaol metodlardan foydalanish juda samarali hisoblanadi. Interfaol metodlar — o'quvchilarni darsga faol jalb qiluvchi, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi vositalardir.

Bunday metodlar yordamida: o'quvchilarning matnni tushunish va eslab qolish qobiliyati oshadi, dars jarayoni qiziqarli va jonli kechadi, o'quvchilarning bir-biri bilan hamkorligi kuchayadi, o'qishga bo'lgan ijobiy motivatsiya shakllanadi.

Shuningdek, interfaol metodlar orqali o'quvchilarda so'z boyligi, gap tuzish, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatni hal qilish kabi ko'nikmalar ham rivojlantiriladi. Shu bilan birga, o'qituvchi darsni yanada samarali, individual yondashuvni esa amaliyotga tatbiq etishi mumkin. Natijada, interfaol metodlardan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga qiziqishi oshadi va ta'lim jarayoni sifatli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov, F. (2018). Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

2. Xolmirzaeva, S. (2020). Ta'limda o'quvchi faolligini oshirish usullari. Toshkent: Fan va ta'lim.
3. Karimov, J. (2019). Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun metodik qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston.
4. UNESCO. (2016). Teaching and Learning: Achieving Quality for All. Paris: UNESCO.
5. Kholmurodov, R. (2021). Interfaol pedagogika va dars metodikalari. Toshkent: Fan va Ta'lim.
6. M.E.Toirova. Toshkent-2023. Ona tili 4-sinf 1-qism darsligi.